

## **FORTEPIANODA ETYUD BILAN ISHLASH USULLARI.**

**Egamqulov Oybek Altmishevich –**

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Rahmonqulova Sojida Ikromovna**

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti Sirtqi (Maxsus sirtqi) bo'limi**

**“Musiqqa ta'lim” S1101-20 guruh talabasi**

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'rta va san'at maktablarda asosan texnik asar sifatida beriladigan Etyud mavzusi yoritilgan. Shuningdek, texnik etyudlar va badiiy etyudlarning farqli tomonlari haqida ma'lumotlar hamda, badiiy etyudlarning ijrochilikdagi o'rni bilan texnik etyudlar orasidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin*

***Kalit so'zlar:** Etyud, K.Cherni, F.List, Paganini mavzusi.*

Musiqqa olamida har bir cholg'uchi borki, etyudga murojat qilmaslikning iloji yo'q. Bu esa o'z-o'zidan etyudning cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etishidan dalolatdir. O'quvchilarning bolalar musiqqa maktablarida va barcha oliy ta'lim dargohlarida etyudlar bilan shug'ullanishi zarur va dolzabdir.

Avvalo etyud nima degan savolni o'zimizga berishimiz kerak bo'ladi. Etyud –musiqqa janrlaridan biri bo'lib, Fransuz tilidan tarjima qilinganda mashq, mashq qilish, o'rganish degan ma'nolarni bildiradi va odatda musiqqa ijrochisiga qiyin bo'lgan qaysidir bir usullarni va asar davomida uchraydigan shakllarini qayta-qayta chalib o'zlashtiriladigan kichik asarni tushuniladi. Etyud boshqa san'at yo'nalishlarida bo'lgani kabi musiqqa sohasida ham uchraydi va muayyan texnik jihatdan malakasini oshirishga mo'ljallangan pyesadir. Etyud XIX asrda musiqqa cholg'ulari takomillashuvi hamda virtuoz ijrochiligining yuksalishi natijasida rivoj topdi. Bunday asarlarni ko'plab kompozitorlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Masalan K.Cherni, Moskovskiy, M.Klementi, F.Shopen, F.List va

boshqa ko'plab kompozitorlar yaratgan asarlar bunga yorqin misol bo'ladi. Etyudlar badiiyligi va tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Badiiy etyudlar.
2. Texnik etyudlardir.

Fortepiano ijro texnikasini shakllantirish uchun qo'yiladigan dastlabki talablardan biri bu gavdani to'g'ri tutish, qo'l holatida bilak tepaga ko'tarilmagan (ayniqsa akkordlar ijrosi paytida) tirsak tepadan 30 gradus burchak holda turishi maqsadga muvofiqdir. Chunki qanchalik erkin o'tirilsa qo'llarning tezroq yurishiga zamin yaratiladi va albatta asarning texnikaviy jihatdan qo'yilgan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarni o'rganish jarayonida ham, ijro paytida ham klaviaturaga qarab emas balkim, notaga qarab chalish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Bunda barmoq xotirasi yaxshi rivojlanadi. Chunki aynan aplikaturaning qulayligi asarni eslab qolish jarayonini, barmoqlar xotirasini mustahkamlab, tez sur'atli passajlar ijrosini yengillashtiradi. Texnik usullarni shartli ravishda kichik va yirik usuldagi mashqlarga bo'lamiz. Kichik usuldagi mashqlarga "Punktir", "Grupirovka" (2,3,4) lar kiradi. Punktir usuli barmoqlarning mustahkam va sanoqlarning tekis bo'lishiga xizmat qiladi. Bu usulda asosan 2 tovush orasining birini qisqa va birini uzun chalish orqali bajariladi.

San'at maktablarida asosan K.Cherni etyudlariga murojaat qilinadi. Chunki u yaratgan etyudlarning aksariyati kichik barmoqlar texnikasini o'stirishga mo'ljallangan. Bular: tezlik-chaqqonlik, ijroda tekislik va aniqlikka ega bo'lishga yordam beradi. Shuni ham aytish mumkinki K.Cherni tomonidan katta ahamiyat berilgan texnik ko'rinishdagi gammalarni mashq qilish juda foydalidir. K.Cherninig aksariyat etyudlari badiiy imkoniyatlarga boy. Bundan tashqari ular barmoqlar harakatining turli hil usullariga asoslanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. K.Cherni etyudlaridan biri chap qo'lning mayda texnikasini o'zlashtirishga yana biri oktava passajlarini o'zlashtirishga yana qaysidir biri oktavaga, tersiyalangan tovushni o'zlashtirishga va 1-barmoqni to'g'ri qo'yishga yordam beruvchi etyudlar hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek etyudlar texnik va badiiy etyudlarga ajratiladi. Badiiy etyudlarning texnik etyudlardan farqi ijro etish uchungina mo'ljallanib qolmay balki, konsert etyud ya'ni asar bo'lib, unda badiiy obrazning mavjudligi bilan, hajmi va faktura jihatidan texnik etyudlardan farq qilinadi. Yana bir farqi shundan iboratki, texnik etyudlar butun asar davomida ma'lum bitta texnika ustida ishlash va o'zlashtirishga yordam berishga mo'ljallanib yoziladi. Masalan, K.Cherninig qaysidir etyudi chap qo'l mayda texnikasini o'zlashtirishga yoki tertsiyalangan tovushlarni o'zlashtirishga yana biri birinchi barmoqni to'g'ri qo'yishga yordam beruvchi etyudlar bo'lishi mumkin. Badiiy etyudlarda esa bitta asarni o'zida turli xil texnik pryomlarni qamrab oladi ya'ni o'sha bitta asarda ham ikkilangan, ham tertsiyalangan tovushlarga, mayda texnikalarga, oktavalarga va arpedjiolarga mo'ljallangan bo'ladi. Shuning uchun ular faktura jihatdan ancha boy va murakkab bo'ladi. Badiiy etyudlarni ko'pgina mashxur kompozitorlarning ijod namunalarida ko'rish mumkin. F.Listning "Paganini mavzusiga" bag'ishlangan 6 ta etyudlar, katta 12 ta etyudi, Shopen 27 ta etyudi, Rahmaninovning etyud kartinalari, Debyussining 12 etyud sikli nomli etyudlarini o'rganishimiz mumkin. Shulardan K.Chernining shogirdi F.Listning "Paganini mavzusiga" yozilgan 6 ta etyudini ko'rib chiqadigan bo'lsak ushbu etyudlar Paganining mohirona texnikasidan ta'sirlangan holda yozilgan va bu etyudlarning mavzusi ham Paganini mavzularidan olingan. K.Chernining o'quvchisi bo'lmish F.Listning o'zi texnik pryomlarni 4 guruhga bo'lgan.

1.Oktava –akkordlar. 2.Trembilalar. 3.Tertsiyalangan tovushlar. 4. Gamma va arpedjiolar. Listning ushbu pryomlarning hammasini o'zining etyudlarida qo'llagan. Paganini mavzusiga bag'ishlangan 1-etyudi trembilaga mo'ljallangan. Lekin faqat shu bilan cheklanibgina qolmasdan asarda boshqa texnik pryomlardan foydalangan. Kirish qismida arpedjiolangan va xromatik passajlarni ko'rishimiz mumkin. Asosiy qismda esa chap qo'l uchun trembilalar berilgan. Faqatgina asosiy trembila emas balki, oktavali, arpedjioli, tertsiyalangan trembilalarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir cholg'u uchun mo'ljallangan etyudlardan foydalanish ijrochida texnik mahorat va ijroda qiyinchilik tug'diruvchi shakl va jummalarni amalga oshirishda amaliy yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. М.Андреев Основные вопросы начального обучения игре на ударных инструментах. М., 1972.
2. А.Баташев История джазовой музыкальной культуры М.М., 2000.
3. К.Бюхера Работа и ритм М., 1923.
- 4.Л.Ганиева Методология фортепианно-ансамблевой музыки Узбекистана. Т.: Нишон ношир, 2016.
5. Л.Ганиева Эстрадно-инструментальное исполнительство Учебник. Т.: Musiq, 2019.
6. Р.Груббер История музыкальной культуры. Т. I. - Л., 1941. - 595 е.; Т.П.- М., 1953.
7. Э.Денисов Ударные инструменты в современном оркестре. М.:Советский композитор, 1982.
8. А.Панайотов Ударные инструменты в современных оркестрах. М.: Музыка, 1973
- 9.В. Никитин. «Начинающий джазовый пианист». М., 1982.
- 10.Ж.Рамо, М.Равель, К.Дебюсси, И.Стравинский. Различные пьесы для разных инструментов в сопровождении фортепиано. М., 1996-2006.
11. К.Закс История музыкальных инструментов. Musirinstrumente, 1980.
- 12.В.Коротков Иновационные технологии обучения в музыкальном образовании. // Сборник научных трудов. Т.2. Т.: «Янги авлод», 2018.
12. Egamqulov, O. (2020). ЭСТРАДНО-ДЖАЗОВЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ И МЕТОДЫ ИХ ИЗУЧЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83).  
извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/723313](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/723313).

13. Egamqulov, O. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ДЖАЗОВОГО СТИЛЯ «БИБОП» В МУЗЫКАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(83).  
извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/7248](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7248)